

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI FARG‘ONA
FILIALI**

**“Harakatli o‘yinlarni o‘qitish uslubiyati”
moduli**

**3-MAVZU:
MILLIY HARAKATLI O‘YINLAR**

dotsent Qambarov Orzubek Faxriddinovich

Reja:

1. **Xalq milliy harakatli o‘yinlarini o‘tkazish uslubiyati.**
2. **Milliy harakatli o‘yinlarining vazifasi.**



Pedagogik rahbarlik qilish o'yinni tashkil qilishdan boshlanadi. Tashkil qilish bu uslub bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, maqsadga muvofiq o'yinni yaxshilab boshqarishga yordam beradi, bu uslubiylati esa o'yinni alohida tashkil qilish malakalaridan bog'liq holda birinchi marta o'zgarishi mumkin bo'ladi.



Harakatli o'yinlarni tanlashda ularni yoshlar va bolalar bilan o'tkazish uchun, tarbiyalashni vazifasiga mos keladigan o'yinni mazmunini pedagogik yo'naltirilganligini hisobga olish zarur, bunda unung ilmiyligi, rejaga asoslanganligi, o'yinni o'tkazish rejasidagi ketma ketligi, mavsumiyligi, o'yinni o'tkazish joyi va shug'ullanuvchilar tarkibini tarbiyalash, ta'limiy va sog'lomlashtirish natijalariga yo'naltirilganligini.



O'yinni o'tkazishda boshqaruv yoki rahbarlik pedagoglarga, tarbiyachilarga, yetakchilarga mansub bo'ladi. O'yinni tarbiyalash, ta'limiy va sog'lomlashtirish qimmatini ko'proq uni boshqarishga bog'liq bo'ladi. Boshqa va huddi shu o'yinlar yordamida har xil axloqiy va jismoniy sifatlarni tarbiyalash mumkin



Harakatli o‘yinlarni o‘tkazish qoidalari

Harakatli o‘yin tanlash eng avvalo mashg‘ulot oldiga qo‘yilgan quydagi vazifalarga bog‘liq bo‘ladi.

- rahbar bolalarni yosh xususiyatlari;
- bolalarni rivojlanishi;
- bolalarni jismoniy tayyorgarligi;
- bolalarni soniga;
- harakatli o‘yin o‘tkazish sharoiti;



Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishga joy tayyorlash



Ochiq havoda harakatli o‘yin o‘tkazish uchun chim sport maydoni yoki tennis maydoncha tanlanadi (ayniqsa maktabgacha ta’lim tashkiloti yoshdagi bolalar uchun). Eng yaxshisi maydonchani to‘g‘ri burchak shaklida, eng kamida 8 m, uzunligi kamida 12 m bo‘lishi kerak. Maydondan 2 m masofada bir necha o‘rindiqni qo‘yish tavsiya qilinadi. Iloji boricha, yozgi maydonchani atrofida daraxtlar bo‘lgani yaxshi.



O‘yinga asbob-anjomlarni tayyorlash



Milliy harakatli o‘yinlarni o‘tkazish uchun bayroqchalar, rangli lentalar, har hil kattalikdagi koptoklar, gimnastika tayoqcha, bulavalar yoki , chambarak, arg‘amchilar kerak. O‘yinda asbob-anjom chiroyli, yashil rangda va o‘yinda ajralib turadigan bo‘lish kerak (bu kichik maktabgacha ta‘lim tashkiloti yoshidagi bolalar uchun eng avvalo muhimdir). Asbob-anjomni katta kichikligi va og‘irligi bo‘yicha o‘ynovchilarni bo‘ylariga va yoshiga mos bo‘lish lozim.



Maydonni belgilash.



Agarda maydoni belgilash uchun ko'p vaqt talab qilinadigan bo'lsa unda buni harakatli o'yin boshlanishiga qadar bajarilishi kerak. Belgilash murakkab bo'lmasa unda harakatli o'yin mazmunini gapirib berish bilan bir vaqtda yoki uni boshlanishdan oldin bajarish mumkin, gapirib berish vaqtida faqatgina belgilangan chegarasini ko'rsatish mumkin. Tez-tez takrorlanadigan o'yin uchun maydonchani doimo bo'lib turadigan belgi chizish mumkin.

O'yin uchun ajratilgan belgilar ravshan chizilgan bo'lishi shart, o'yinga berilib ketgan, bolalar uchun, ular orqasidan kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'yin uchun chizilgan chiziq to'siqdan, devordan yoki boshqa buyumlardan 3 m dan yaqin bo'lmasligi kerak, bo'lmasa bolalar shikastlanishlari mumkin. Bu eng avvalo yugurib o'tish bilan o'ynaladigan o'yinlarda juda muximdir, chunki bunda juda-juda katta guruh o'yin qatnashchilari birvaqtni o'zida chegarasidan yugurib o'tadilar.

Harakatli o'yinning vazifasi

Harakatli o'yinni asosiy mazmuni turli-tuman harakatlar va o'ynovchilarning harakati hisoblanadi. Ularni to'g'ri boshqarishda yurak-qon tomir tizimiga, mushak, nafas olish va organizmning boshqa tizimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Harakatli o'yinlar funksional faoliyatni ko'taradi, tanadagi katta va kichik mushaklarni turli tuman dinamik ishlarga jalb qiladi, bo'g'inlarda harakatlanishni oshiradi, har xil analizatorlarni rivojlantiradi va takomillashtirishga yordam beradi.



Harakatli o'yinni tarbiyaviy vazifasi

Tezlikni, tezkor-kuchlilik, kuchni, egiluvchanlikni va xayot uchun eng muhim bo'lgan jismoniy sifatlarni kompleks ravishda rivojlantiradi

Zo'riqish harakatini tez-tez qaytarish bilan o'ynaladigan o'yin bir muncha kuchni va energiyani sarf qilish bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz harakat faoliyati, chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi.

Ko'pchilik harakatli o'yinlar o'yin qatnashchilaridan tezlikni talab qiladi.(tezda qochib ketish, quvlab yetish, signalga, musiqaviy signallarga tezda javob berish.

Tezkorlik-kuchlanish yo'nalishidagi o'yinlar kuchni tarbiyalaydi.

O'yinda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi sharoitda, o'yin qatnashchilaridan bitta harakatdan boshqasiga tezda o'tishni talab qiladi, epchillikni tarbiyalashga yordam beradi.

**E'tiboringiz uchun
rahmat!**

